

## **XX ASRNING 30-YILLARI - XX ASR 40-YILLARI BOSHLARIDA O'ZBEKISTONNING VILOYATLARIDA ANTIK DAVR SHAHARLARIDA ARXEOLOGIK IZLANISHLAR NATIJALARI.**

***Karimov Zafar Bekturdiyevich***

*Urganch davlat universiteti Tarix kafedrasи o'qituvchisi*

*e.mail: Temurmalik154@gmail.com*

**Annotatsiya:** O'zbekistonning qadimgi davri, uning boy tarixi va madaniyati, ko'plab arxeologik tadqiqotlar orqali o'r ganilgan. XX asrning 30-yillari va 40-yillari boshlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar, mamlakatning tarixiy merosini o'r ganishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu davrda O'zbekistondagi qadimgi shaharlar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati va savdo aloqalari haqida ko'plab yangi ma'lumotlar keltirildi.

**Kalit so'zlari:** Tali-Barzu, Varaxsha, Jonbosqal'ada, Ko'zaliqir, Ayozqal'a.

**Аннотация:** Многочисленные археологические исследования были проведены для изучения древней истории и культуры Узбекистана. Археологические исследования, проведенные в 1930-х и начале 1940-х годов, оказались решающими в изучении исторической истории страны. За это время было собрано значительное количество новой информации о древних городах Узбекистана, включая их социально-экономическую жизнь, культуру и торговые отношения.

**Ключевые слова:** Тали-Барзу, Варахша, Джонбоскалада, Козаликир, Айозкала.

**Abstract:** Numerous archaeological research have been conducted to learn about Uzbekistan's ancient history and culture. Archaeological studies undertaken throughout the 1930s and early 1940s proved crucial in examining the country's historical history.

During this time, considerable new information was gathered about Uzbekistan's ancient cities, including their socioeconomic life, culture, and trade relations.

**Key words:** Tali-Barzu, Varakhsha, Jonboskalada, Kozalikir, Ayozkala.

**Kirish.** 1930-yillarning oxiridan boshlab, O‘zbekistonning turli viloyatlarida arxeologik qazishmalar faol ravishda amalga oshirildi. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlar atrofida olib borilgan tadqiqotlar, qadimgi davr shaharlarining mavjudligini va ularning tarixiy ahamiyatini ko‘rsatdi.

Samarqand va Buxoro kabi shaharlar, qadimdan savdo va madaniyat markazlari bo‘lib, ularning arxeologik topilmalarida yunon, rim, fors va boshqa xalqlarning ta’siri sezilarli. Qazishmalar davomida topilgan keramika, metall buyumlar, monetalar va boshqa artefaktlar, bu shaharlarning o‘zaro aloqalari va savdo yo‘llaridagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

XX asrning 30-40-yillarida O‘zbekiston hududida turli nomdagi arxeologik-etnografik ekspeditsiya xodimlari tarixiy obidalarni ro‘yaxtgta olish, ularning joylashuv xaritalarini ishlab chiqish, ularni ilmiy asosda o‘rganish va qazishma ishlarini olib borish ishlarini keng miqysoda boshladilar. Natjada ko’plab hududlarda tarixiy obidalar o‘rganilib, xaritalashtirildi. Mil. avv IV – milodiy IV asrlarda O‘zbekiston hududida shaharlar va madaniy-xo’jalik mikrovohalari tashkil topgan, rivojlangan. Chunki bu davrda O‘zbek davlatchiligi rivojlanishi yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Bir qancha davlatlar tashkil topdi, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi, boshqaruva tartiblari taraqqiy qildi. Bu esa o‘z navbatida yangidan shaharlarning tashkil topishiga, yoki avvaldan mavjud shaharlarning yuksalishiga olib keldi. Mazkur davrda dehqonchilik asosiy mashg’ulot hisoblangani bois unumdar yerlarga dehqonchilik aholisi migratsiyasi amalga oshadi. Bundan tashqari chorvador va yarim chorvador qabilalar tomonidan o’troq hayotga o’tishi jarayonida unumdar yerlarga talab oshadi. Bu o‘z navbatida shaharsozlik madaniyati yuksalishiga kata ta’sir qildi. O‘zbekiston hududida tashkil topgan moddiy madaniyat ashyolarini o‘rganishda arxeologiya fani juda muhim

hisoblanadi. Chunki yozuv paydo bo'lishigacha bo'lgan tarix moddiy ashyolar asosida yoritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. 1936-yilda Leningradda (hozirgi Sankt-Peterburgda) SSSR FA sining Moddiy madaniyat tarixi institutida O'rta Osiyo xalqlari tarixi va arxeologiyasiga bag'ishlangan maxsus yig'ilish bo'lib o'tgan. Yig'ilishda olimlar O'rta Osiyoning arablarga gachcha bo'lgan davr tarixini yoritishda yozma manbalarning o'zi kifoya qilmasligini, binobarin mintaqada arxeologik tadqiqotlar ko'lagini kengaytirish kerakligini alohida ta'kidladilar [1].

**Tahlil va natijalar.** XX asrning 30-yillarda O'zbekiston hududida keng miqyosda arxeologik qazishma ishlarini A. Yu. Yakubovskiy Zarafshon vodiysida (1934, 1939), M. Ye. Masson qadimgi Termizda (1936-38), V. A. Shishkin Tali Barzuda (1936-39), Varaxshada (1937-39), S P. Tolstov, Ya. F. G'ulomov qadimgi Xorazm vohasida (1937-50), A. P. Okladnikov Teshiktosh va Machay g'orlarida (1938-39), V. V. Grigorev Qovunchitepa xarobalarida (1934-37) olib bordilar. To'plangan arxeologik materiallar O'zbekiston tarixini davrlashtirishda muhim manba bo'ldi, yangi arxeologik madaniyatlar (Kaltaminor, Tozabog'yop, Qovunchi madaniyatları va boshqalar) o'rganilib, fanga kiritildi. 1936-1938-yillarda Zarafshon arxeologiya ekspeditsiya guruhi rahbari G.V. Grigoryev tomonidan Samarqand shahri yaqinida Tali-Barzuda olib borilgan qazishma ishlari natijasida olingan ashyolar yodgorlikning tarixiy davrini mil. avv VI-V – milodiy VIII asrlarga oid bo'lgan [2]. 1937-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademysi Tarix va arxeologiya institutining arxeologiya bo'limi V.A. Shishkin rahbarligidagi guruhi Buxoro vohasi g'arbiy hududida joylashgan Varaxsha yodgorligida tekshirish ishlari natijasida olingan ashyolar mil. avv II – I asrlarga oid bo'lgan [3].

1937-yilda A.I. Terenojkin Xorazmning Sho'raxon va Sulton Uvays tog'i oralig'ida joylashgan aholi turar-joylarini ro'yxatga olib, ularni arxeologik xaritaga joylashtirib, Ayozqal'a I, II, Pilqal'a, Katta Guldursun, Teshikqal'a va Burgutqal'a yodgorliklarini arxeologik xaritaga joylashtirib, Burgutqal'ada qisman qazishma ishlarini olib borib, ilk o'rta asrlarga oid ashyolar olingan [4]. A.I. Terenojkinning xizmati shundan iborat bo'ldiki, yuqorida qayd qilingan yodgorliklarni tasvir qilgan kartografiya S.P. Tosltov

rahbarligdagi Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasining tashkil qilinishiga asos bo‘lgan. 1938-1941-yillarda M.E.Masson rahbarligida Termiz arxeologiya-kompleks ekspeditsiyasi Eski Termiz arkida o‘tkazilgan arxeologik izlanishlar munosabati bilan mil. avv IV – III asrlarga mansub moddiy ashyolarni olishga erishgan [5].

1937 yilda S.P. Tolstov rahbarligida arxeologiya ekspeditsiyasi Quyi Amudaryo, Sariqamish, Uzboy va Sirdaryo quyisi havzasi arxeologik dala amaliyotini olib borish jarayonida 400 dan ziyod tarixiy davr, uning turli bosqichlariga mansub bo‘lgan arxeologik yodgorliklarni ro‘yxatga olgan, Jonbosqal’ada, Ko‘zaliqir yodgorliklarida qisman qazilma ishlari olib borilishi natijasida mil. avv VII asrga oid manbalar olingan [6]. ularning ba’zilarida arxeologik izlanishlarni olib borilgan. Xususan, 1939 yilda Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari Xorazm vohasi janubiy chegarasiga ulangan Sariqamishbo‘yi havzasi Amudaryoni Dovdon irmog‘i o‘rta qismi shimoliy tomoni yo‘nalgan Charmanyop sug‘orish magistral kanalidan sharqiga chiqarilgan shaxobcha sohili etagiga ulangan balandlik etnotoponomikasi arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan. Yodgorlikning mudofaa devorida olib borilgan qisman qazishma ishlari natijasida pastki qismi paxsa, keyin esa to‘g‘riburchak xom g‘ishtdan tiklangan devor o‘rab olgan, u uch yo‘lakdan iborat bo‘lgan. Yo‘lak o‘rtasida odamlar istiqomat qilgan, otashgoh joylashigan, mudofaa devor, uning yon qismi bo‘ylab to‘g‘ri burchak burj, u o‘z navbatida nayza o‘qli shinaklarga ega bo‘lgan. Arxeologik izlanishlar natijalariga ko‘ra, yodgorlik mil. avv VI-IV asrlarga oid bo‘lgan [7].

**Xulosa.** O‘zbekiston hududida qadimgi shaharlarni ilmiy o‘rganish ishlarining ikkinchi davri albatta Sovet hukumatining ko‘rsatmalari va buyruqlari asosida amalgalashirilgan jarayon hisoblanadi. Bu davr mazmuni Xorazm, Buxoro va Surxondaryo viloyatlari hududlarida o‘troq ziroatkor aholi tomonidan bino qilingan qalalardan olingan ashyolar antik davr tarixida yuz bergen jarayonlarni ayrim sahifasini yoritishga xizmat qiladigan manbalar olingan. Darhaqiqat, Toshkent, O‘rta va Janubiy Zarafshon, Farg‘ona, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida aholi turar-joylarni arxeologik jihatidan o‘rganish ishlari olib borilmagan.

## **ADABIYOTLAR**

1. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта-М.:Наука, 1967, 5.с.
2. Григорьев Г.В. Городище Тали-Барзу – ТОВГЭ, Л-д,: 1940, Вип-2. – С 87-104.
3. Шишкин В.А. Археологические работы 1937 г. в западной части Бухарского оазиса//Изв. УзФАН-Ташкент,: 1940. –С 15-20.
4. Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме//СА-М,: Наука, 1940. Вып-6. – С 167-175.
5. Массон М.Е. Городище Старого Термеза и их изучение//Тр.Уз.Фан,- Ташкент, Серия-1, Вып-2. 1940-102 с.
6. Толстов С.П. Древний Хорезм. М,: МГУ, 1948 – С 81. рис-20.
7. Толстов С.П. Древности верхнего Хорезма.-М.:Наука,1941.ВДИ-1.-С 177-178.